

IBN SINONING «URJUZA» ASARI

Allaberganova Ilmira ¹¹ Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

+998991139592

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:12.03.2025

Revised: 13.03.2025

Accepted:14.03.2025

Ushbu maqolada jahon ilm fani va tibbiyotini yuksalishida o'zining beqiyos hissasini qo'shgan,, buyuk mutaffakkir "Tib ilmining sultoni", G'arbda Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lgan-Abu Ali ibn Sinoning ilmiy faoliyati va "Tibbiy urjuza" nomli asarining mazmun-mohiyati yoritilgan.

KALIT SO'ZLAR:

Tabobat, alloma,
sharq, shayxurrais,
Avitsenna, Buxoro, Tib
qonunlari, mibbiy
urjuza.

KIRISH. Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari orasida asli buxorolik Abu Ali ibn Sino (980-1037) alohida o'rin tutardi, u butun dunyoda tibbiyot ilmi yuksalishiga asos solib, musulmon Sharqining o'lgan qomusiy ahliy, jahon ilmi va madaniyatning eng mashhur nomayondalaridan biridir. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini o'rta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk mutafakkirlardan biri – Abu Ali ibn Sino bo'lib, u Yevropada "Avitsenna" nomi bilan mashhurdir, shuningdek Ibn Sino O'rta asr fanning turli sohalari, uning rivojiga katta hissa qo'shdi va o'z davrida «Shayx-ur rays» unvoni bilan taqdirlanadi. Ibn Sino o'z kitoblarini o'sha davr ilmiy-adabiy tillari— arab va fors tillarida yozib, 450 dan ortiq asar yaratadi. Jumladan ularning 190 tasi falsafa, mantiq, psixologiya, axloqshunoslik, ta'lim tarbiya va turli ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag'ishlan. Ibn Sino asarlarining bir qismi o'zbek, tojik, rus tillariga tarjima etilgan.

Asosiy qism. Ibn Sino ko'pgina falsafiy badiiy qissa va she'riy asarlarning ham muallifidir. Ularning orasida arab tilida yozilgan asar — "Qonun fit-tibb" ("Tibb

qonunlari"), 22 jildidan iborat mantiq fizika, matematika, metafizika fanini to'liq o'z ichiga olgan "Kitob ash-shifo", 4 qismdan iborat "Kitob an-najot", "Imorat va tanbehhot", "Kitob an-insof", "Kitob-lison ar-arab" asarlari, fors tilida bitilgan "Donishnoma" va "Tibbiy risolalar" kitoblarini alohida ko'rsatib o'tish mumkin.

Uning «Tib qonunlari», «Najot kitobi» asarlari asrlar davomida Sharq, G'arb mamlakatlarida tibbiyot qomusi sifatida tan olinib, o'quv qo'llanmasi vazifasini o'tab kelgan "Al-Urjuza fi-t-tib" asari esa XVII asrga qadar evropalik shifokorlar uchun asosiy qo'llanma bo'lgan.

Ibn Sino «Avisenna» sifatida G'arbda mashhur bo'lgan uning tibbiy merosi, xususan, "Tib qonunlari" bo'lsa, "Shayx ar-raisi" ("Donishmandlar sardori, allomalar boshlig'i") nomli asari buyuk faylasufligiga ishoradir.

Tibbiyotga oid asarlari allamoma ijodida alohida ahamiyatga ega. Ibn Sinoning tibbiyotning umumiy nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan eng yirik asari "Tib qonunlari" bo'lib u asar 5 katta kitobdan iborat bo'lib (1956-62 yillarda Toshkentda rus va o'zbek tillarda to'la nashr etilgan).

Ibn Sinoning tibbiyotga oid muhim asarlaridan ikkinchisi nazm (she'r usul) bilan yozilgan "Tibbiy urjuza" kitobidir. Bu kitob 1326 bayt (2652 misra)dan iborat katta she'riy asardir. Kitob tib ilmini o'rganuvi talabalarga darslik sifatida yozilgan. Bu asar asosan tibbiyotning nazariy masalalariga bag'ishlangan. Lekin, unda amaliy tibbiyot haqida ham yetarli ma'lumot berilgan. "Tibbiy urjuza" o'z mazmuni va ahamiyati jihatidan "Qonuni"dan uncha qolishmaydi. "Qonuni"da bayon etilgan mavzu va masalalar "Urjuza"da qisqa va ixcham qilib keltirilgan. "Tibbiy risolalar" 4 kitobdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi "Urjuza" hisoblanadi. Bu risola aruzning "raja" baxrida yozilgan bo'lib, tabobatning muhim muammolari va ularning echimi she'riy usulda ifodalagan. Chunki she'riyat inson ongiga tez ta'sir qilib, xotirada yaxshi saqlanib qolishi va chuqurroq singdirilishini nazarda tutgan holda tibbiy risolalar yozgan ispaniyalik Sa'id Kurtubiyning merosi bilan tanish bo'lgan Ibn Sino shu uslubni qo'llashni ma'qul ko'rgan. Ibn Sinodan keyin olimlar orasida ushbu usulda ijod qilgan Abu Ja'far al-Marg'ibiyni (vafoti 1180 yil) eslab o'tish joizdir.

"Urjuza" asarini asosan sharhlash orqali o'rganilgan. Unga yozilgan sharhlar orasida mukammali Ibn Rushdning "Qulliyot" deb nomlangan asari bo'lib, uning ayrim nusxalari bizgacha etib kelgan. Ibn Rushd "Urjuza"ni tabobat ilmining mukaddimasi deb baholagan.

"Urjuza" tibbiyotga oid she'riy asarlar ichida eng mukammali hisoblanadi. Ibn Sino asarni yaratish va g'oyalarini ommaga tez etib borishi uchun asar ustida juda ko'p mehnat

qilgan. "Men bu "Urjuza"ga kamolot tunini va husn sarposini kiygizdim, uni o'rganish osonroq, mashaqqati kamroq bo'lsin deb, to'qilishini oson, vaznini engil qildim,— deb yozgandi Ibn Sino. — Natijada, kimki unga idrok ko'zi bilan qarasa, bu hajmi kichik asar tufayli katta ilmga erisha olishi mumkin".

"Urjuza" 1326 baytdan iborat iborat bo'lib, uning muqaddimasida Ibn Sino asarning yozilishi sabablari haqida so'z yuritadi. Kasalliklarning kelib chiqishi va ularni davolash usullari haqida so'z yuritiladigan asosiy qismi ikkiga bo'lingan bo'lib, uning birinchi nazariy qismida tabobatning tavsifi va taqsimlanishi, unsurlar, mijozlar, xiltlar, a'zolar, ruhlar, quvvatlar, ta'sirlar, kasalliklarning kelib chiqish sabablari, ularni aniqlash va oldini olish masalalari keng yoritilgan. Ibn Sino insonlardagi kasalliklarni aniqlashda tabiiy o'zgarishlarga alohida e'tibor berish lozimligini ta'kidlab o'tadi.

Kitobda inson salomatligi uchun zaruriy hisoblangan — havo, ovqatlar, ichimliklar, uyqu va uyg'oqlik, harakat va harakatsizlik, bo'shanish va bo'shanmaslik, nafsoniy kayfiyatlar kabi nazariy masalalarni yoritishga ham keng o'rin berilgan. Tomir urushi va undan kasallik belgilarini topish, tupuk, jigar, siydik, axlat, teri kasalliklarini aniqlash, qon, safro va balg'am g'alaba qilishining belgilari, buhron (inqiroz) va o'limdan ogohlantiruvchi belgilar haqida batafsil fikr yuritiladi.

«Urjuza» ikkinchi qismi amaliyot muammolariga qaratilgan bo'lib, u sog'liqni saqlash va kasalliklarni davolash usullari, muloja vaqtida ishlatiladigan dorilarga bag'ishlangan. Hususan, uyqu tadbiri harakat tadbiri, safarda bo'ladiganlar tadbiri, ona qornidagi chaqaloq va dard tutish vaqtidagi tadbirlar, go'dakning o'ziga xos boshqa tadbirlari, kasaldan yangi turgan kishi va qari kishilar tadbiri to'g'risida so'z yuritiladi. Hakim Ibn Sino o'z kitobining amaliy qismidagi ikkinchi bandida betob kishilarning salomatligini dori va taomlar yordamida tiklash masalalariga e'tiborni qaratarkan, surgi haqida, umuman dorilarni tarkib qilish, ularni quvvati, sodda dorilar darajalari va xususiyatlarini tasvirlashga intilgan. So'ng qon, balg'am, safro va savdodan paydo bo'ladigan kasalliklar va ularni davolash usullari haqida so'z yuritadi.

"Urjuza"ning ikkinchi qismi uchinchi bandida qo'l bilan qilinadigan ishlar haqida so'z yuritiladi va unga tomirdan qon olish, etni tilish, kesish, dog'lash va yorish kabi masalalar kiritilgan. To'rtinchi bandida suyakni o'z o'rniga qo'yish va chiqqan suyaklarni davolash haqida maslahatlar berilgan.

Hulosa. Hakim Ibn Sinoning "Urjuza" asari nafaqat she'riy va tibbiy risola, balki tibbiyot ilmiga kirish, uni o'rganuvchilar uchun darslik sifatida yozilgan. Asar dunyoning ko'pgina

halqlari tillariga tarjima qilingan bo'lib, u bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan va zamonaviy tibbiyot uchun dasturamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Ali ibn Sino-Falsafiy qissalar(Abdusodiq Isirov Tarjimasi)-T.2016.
2. Zohidov V. Uch daho (Farobiy, Beruniy, Ibn Sino). - T., 1987.
3. Isaev Y. Abu Ali ibn Sino. - T.: Tafakkur. 2010.
4. Abu Ali ibn Sino haqida hikoyalar va rivoyatlar
5. Oqiljon Xusan-Ibn Sino visoli-T.1989.
6. Maqsud Qoriyev-Ibn Sino(II jild)-T.:Sharq.2000.
7. N.Q.Yo'ldoshev-Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, A.Navoiy, Beruniy, Mirzo Ulug'beklarning bozor,extiyoj,moddiyu manfaat haqidsagi qarashlari.-T.2009.
8. Aziz Qayumov-Abu Rayxon Beruniy,Abu Ali ibn Sino-T.1987.
9. Rustamov Y.B.-Abu Ali ibn Sinoning "Donishmandsnoma" va "Ruh haqida" asarlarida psixologik g'oyalar-(Bitiruv malakaviy ishi).2013.
10. U.I.Karimov,X.Xikmatullayev,M.M.Xayrullayev-Abu Ali ibn Sino-Salomatlik Sirlari-T.2000.